



ZAMONAVIY TA'LIMDA DIFFERENSIAL TA'LIMNING AHAMIYATI

Shodmonova Sevara Muxtor qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17033884>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Avgust 2025 yil
Ma'qullandi: 28- Avgust 2025 yil
Nashr qilindi: 31- Avgust 2025 yil

KEY WORDS

differential, differensial ta'lim, metod, xarakter, temperament, individual.

ABSTRACT

Ushbu maqolada differensial ta'limning mazmuni va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati yoritilgan.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'quvchilarning individual xususiyatlariga asoslangan yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy ta'lim yondashuvlarida barcha o'quvchilarga bir xil uslubda dars berilishi natijasida o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va o'zlashtirish darajasi yetarli darajada inobatga olinmasdi. Shu bois, zamonaviy ta'limda differensial ta'lim prinsipi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Differensial ta'lim — bu o'quvchilarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi, o'rganish uslubi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirishdir. Ushbu yondashuv orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatlariga mos darajada rivojlana oladi. Differensial ta'lim o'quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, bunday ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi va shunga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo'lib, "differentia"- farq, tabaqa ma'nolarini anglatadi.

Differensiallashgan ta'limning asosiy belgilaridan biri bu o'quvchilarning turli xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratish hamda o'quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatlarini inobatga olgan holda moslashtirish, to'ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlar (Vygotskiy, Bloom, Tomlinson) differensial ta'lim o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Biroq bu yondashuvning samaradorligi, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi hali to'liq o'rganilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi — differensial ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qilish va uning samaradorligini baholashdir.

Tadqiqot vazifalari:

1. Differensial ta'limning nazariy asoslarini o'rganish.
2. Amaliy tajriba asosida differensial yondashuvning ta'lim sifati va o'quvchilar faolligiga

ta'sirini aniqlash.

3. Uni amaliyotga joriy etishdagi imkoniyat va muammolarni aniqlash.

Metodlar:

Tadqiqot Koson tumanidagi umumta'lim maktablaridan birining 7-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Guruhda jami 60 nafar o'quvchi bo'lib, ular ikkiga — eksperimental (30 nafar) va nazorat guruhiga (30 nafar) ajratildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Pedagogik kuzatuv;

Diagnostik testlar (boshlang'ich va yakuniy);

So'rovnoma (o'quvchilar va o'qituvchilar uchun);

Statistik tahlil (o'rtacha ball, dispersiya, taqqoslash koeffitsientlari).

Eksperimental guruhda 1 oy davomida differensial yondashuv asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu darslarda o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqish sohasi va o'rganish uslublari inobatga olindi. Nazorat guruhida esa an'anaviy uslubda ta'lim berildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Boshlang'ich testlarda ikki guruhning o'rtacha ballari o'zaro yaqin edi (Eksperimental: 65%, Nazorat: 63%).

1 oydan so'ng yakuniy testda Eksperimental guruhning o'rtacha bali 81% ga, Nazorat guruhida esa 70% ga yetdi.

O'quvchilarning faolligi so'rovnomada quyidagicha ifodalandi:

Eksperimental guruhda 87% o'quvchi darslar qiziqarli bo'lganini bildirdi.

Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 62% ni tashkil etdi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, differensial yondashuv o'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasini va darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, individual ehtiyojlarni inobatga olish, o'quvchini psixologik jihatdan quvvatlash va mos o'quv materiallaridan foydalanish natijadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir (Tomlinson, 2001; Bloom, 1984), ular ham differensial ta'limning samaradorligini isbotlagan.

Tadqiqot cheklovlari: qisqa vaqt oralig'ida o'tkazilganligi, faqat bitta maktab misolida tahlil qilinganligi natijalarni umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda turli yosh guruhlari, hududlar va fanlar kesimida chuqurroq tahlil o'tkazish lozim.

Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki:

Differensial ta'lim o'quvchilarning bilim darajasini sezilarli oshiradi;

O'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi ortadi;

Ta'lim jarayonida individual yondashuv samarali natijalar beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida differensial ta'limni keng joriy etish — ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.

2. Bloom, B. S. (1984). The 2 Sigma Problem: The Search for Methods of Group Instruction as Effective as One-to-One Tutoring. Educational Researcher.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Karimov, B. (2020). "Differensial yondashuvning ta'limdagi o'rni". Ta'lim va taraqqiyot jurnali.
5. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislari o'qitish nazariyasi. Xalq ta'limi. 2021, №5, 75-81 b..

